

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA, TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISHGA VA OMMAVIY QIRG‘IN QUROLINI TARQATISHNI MOLIYALASHTIRISHGA QARSHI KURASHISH TO‘G‘RISIDA**

*(qonun nomi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O‘RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

#### **I. UMUMIY QOIDALAR**

##### **1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ushbu Qonunning maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

*(1-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O‘RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

##### **1<sup>1</sup>-modda. Ushbu Qonunning qo‘llanilish sohasi**

Ushbu Qonunning amal qilishi O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, yuridik shaxslarga, ularning filiallari hamda vakolatxonalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalar o‘tkazilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlariga nisbatan tatbiq etiladi.

*(1<sup>1</sup>-modda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O‘RQ-516-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

##### **2-modda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik**

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

*(2-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

##### **3-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar** — jinoyat sodir etish natijasida olingan pul mablag‘lari va boshqa mol-mulk, shuningdek bunday mol-mulkdan foydalanish orqali olingan har qanday foyda yoki naf, xuddi shuningdek to‘liq yoki qisman boshqa mol-mulkka aylantirilgan yoxud o‘zgartirilgan yoki qonuniy manbalar hisobidan olingan mol-mulkka qo‘shilgan pul mablag‘lari va boshqa mol-mulk;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

**jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish** — pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan boʻlsa, ularni oʻtkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yoʻli bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablagʻlarining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, koʻchirish usulini, pul mablagʻlariga yoki boshqa mol-mulkka boʻlgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashlilikini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat boʻlgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish;

*(3-moddaning uchinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi OʻRQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*



[LexUZ sharhi](#)

[Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 243-moddasi.](#)

**pul mablagʻlarini yoki boshqa mol-mulkni ishga solmay toʻxtatib qoʻyish** — pul mablagʻlarini yoki boshqa mol-mulkni oʻtkazishni, konversiyalashni, tasarruf etishni yoxud koʻchirishni taqiqlash;

**operatsiyalarni toʻxtatib turish** — mijozning pul mablagʻlarini yoki boshqa mol-mulkni koʻchirish, konversiyalash, oʻzga shaxslarga egalik qilish va foydalanish uchun berish, shuningdek yuridik ahamiyatga ega boʻlgan boshqa harakatlarni bajarish toʻgʻrisidagi topshiriqnomalari ijrosini toʻxtatib turish;

**terrorizmni moliyalashtirish** — terrorchilik tashkilotining mavjud boʻlishini, faoliyat koʻrsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki Oʻzbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni taʼminlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga koʻmaklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablagʻ-vositalarni, resurslarni berishga yoki yigʻishga, boshqa xizmatlar koʻrsatishga qaratilgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish.

*(3-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi OʻRQ-405-sonli Qonuni tahririda — OʻR QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*



[LexUZ sharhi](#)

[Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 155<sup>3</sup>-moddasi.](#)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

**ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirish** — yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirgʻin qurolini, bunday qurolni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon boʻlgan materiallarni hamda uskunalarni yaratish, ishlab chiqarish, olish, toʻplash, saqlash, oʻtkazish, foydalanish maqsadida har qanday mablagʻ-vositalarni, resurslarni berish yoki yigʻish, boshqa xizmatlar koʻrsatish.

*(3-modda Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi OʻRQ-516-sonli Qonuniga asosan yettinchi xatboshi bilan toʻldirilgan — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

## **II. JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASH-TIRISHGA, TERRORIZMNI MOLIYALASH-TIRISHGA VA OMMAVIY QIRGʻIN QUROLINI TARQATISHNI MOLIYALASH-TIRISHGA QARSHI KURASHISHNI TASHKIL ETISH**

*(II bobning nomi Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi OʻRQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

#### **4-modda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar**

*(4-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

*(4-moddaning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;

*(4-moddaning ikkinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-apreldagi O'RQ-212-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 17-son, 210-modda)*

ichki nazorat;

*Oldingi tahrirga qarang.*

mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar;

*(4-moddaning to'rtinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-apreldagi O'RQ-212-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 17-son, 210-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

tavakkalchiliklarni aniqlashga, baholashga va kamaytirishga doir choralar.

*(4-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuniga asosan beshinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **5-modda. Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat**

Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat — pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar taqdim etadigan axborotni tekshirish va ushbu Qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar majmui.

*(5-modda O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-apreldagi O'RQ-212-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 17-son, 210-modda)*

#### **6-modda. Ichki nazorat**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Ichki nazorat pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalarni aniqlashga doir faoliyatidir.

Ichki nazorat amalga oshirilayotganda zarur axborotni rasmiylashtirish, uning maxfiyligini ta'minlash tartibi, kadrlarni tayyorlash va o'qitishga doir malaka talablari, shuningdek maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni aniqlash mezonlari va ularning alomatlarini belgilanadi.

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun ichki nazorat qoidalari tegishli nazorat qiluvchi, litsenziyalovchi va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda, bunday organlar bo'lmagan holda esa, maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

Ichki nazorat qoidalariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat mazkur qoidalarini tasdiqlagan organlar, shuningdek maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

*(6-modda matni O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-apreldagi O'RQ-212-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 17-son, 210-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **7-modda. Mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar**

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar:

ichki nazorat qoidalarida belgilangan hollarda xo'jalik, fuqaroviy huquqiy munosabatlar aniqlanganda;

ichki nazorat qoidalarida belgilangan hollarda pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq bir martalik operatsiyalar amalga oshirilganda;

shubhali operatsiyalar amalga oshirilganda;

mijozning shaxsi to'g'risida avval olingan ma'lumotlarning to'g'riligiga nisbatan shubhalar mavjud bo'lganda, mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha mustaqil chora-tadbirlar ko'rishlari shart.

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan mijozni lozim darajada tekshirish bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga olishi shart:

tegishli hujjatlar asosida mijozning va qaysi shaxslar nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, o'sha shaxslarning shaxsini hamda vakolatlarini tekshirishni;

ta'sis hujjatlari asosida mulk va boshqaruv tuzilishini o'rganish orqali mulkdorni yoki yuridik shaxs bo'lgan mijozni nazorat qiluvchi shaxsni identifikatsiyalashni;

mijoz tomonidan amalga oshiriladigan amaliy ish munosabatlari va pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni ularning bunday mijoz va uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish maqsadida, doimiy asosda o'rganishni.

*(7-modda O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-apreldagi O'RQ-212-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2009-y., 17-son, 210-modda)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## **7<sup>1</sup>-modda. Tavakkalchiliklarni aniqlashga, baholashga va kamaytirishga doir choralar**

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning, shuningdek ichki nazorat qoidalariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshiruvchi organlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish yuzasidan ehtimol tutilgan tavakkalchiliklarni o'rganishni, tahlil qilishni va aniqlashni o'z faoliyatida tizimli ravishda, yiliga kamida bir marta amalga oshirishi, o'rganish natijalarini hujjatlar bilan qayd etishi hamda aniqlangan tavakkalchiliklarni kamaytirishga doir tegishli choralar ko'rishi shart.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish hollarining oldini olish yoki sonini kamaytirish uchun qo'llaniladigan choralar aniqlangan tavakkalchiliklarga muvofiq bo'lishi hamda nazorat qilishning kengaytirilgan yoki soddalashtirilgan choralarini qo'llash hamda resurslarni samarali taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish imkonini berishi kerak.

Tavakkalchiliklarni baholash natijalari jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi barcha organlarga hamda pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarga yetkazilishi kerak.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish yuzasidan tavakkalchiliklarni baholash bo'yicha choralarini muvofiqlashtirishni maxsus vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

*(7<sup>1</sup>-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

## **8-modda. Maxsus vakolatli davlat organi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida qonunchilikka muvofiq belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar o'tkazilishi ustidan ushbu Qonunda belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilishda xoli va mustaqildir, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

*(8-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



LexUZ sharhi

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi PF-5446-son "Budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 1-bandining to'rtinchi xatboshisi.*

## **9-modda. Maxsus vakolatli davlat organining vakolatlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maxsus vakolatli davlat organi:

pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi organlarning ishini muvofiqlashtiradi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablarining yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi ustidan nazorat qilinishini ta'minlaydi;

*(9-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni, shu jumladan avtomatlashtirilgan axborot, ma'lumotnoma tizimlaridan hamda ma'lumotlar bazalaridan axborotni so'raydi va bepul oladi;

pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha ushbu Qonunga muvofiq olinadigan axborotning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish belgilarini aniqlash maqsadida tahlil qilinishini amalga oshiradi;

pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlardan kelib tushadigan shubhali operatsiyalar haqidagi xabarlarini oladi, ma'lumotlar bazalarini shakllantiradi va ularga ishlov beradi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq ma'lumotlar va axborotni almashish hamda yuborish bo'yicha hamkorlik tartibini huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan birgalikda belgilaydi;

yeterli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda yoki so'rovga binoan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga aloqador pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar haqidagi materiallarni jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi tegishli organlarga yuboradi;

terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslarning ro'yxatini terrorizmga, ommaviy qirg'in qurolini tarqatishga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi davlat organlari va O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar, shuningdek chet davlatlarning vakolatli organlaridan hamda xalqaro tashkilotlardan rasmiy kanallar orqali olingan ma'lumotlar asosida shakllantiradi va yuritadi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bo'yicha tavakkalchiliklarni baholashni tashkil etish yuzasidan jalb etilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birgalikda choralar ko'radi;

yeterli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha choralarni amalga oshirish uchun pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni o'ttiz ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib turish haqida ko'rsatmalar yuboradi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning qo'llanilish amaliyotini davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan olinadigan axborot asosida tahlil qiladi hamda umumlashtiradi, shuningdek qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqadi hamda kiritadi;

*(9-moddaning o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida chet davlatlarning vakolatli organlari, xalqaro ixtisoslashgan tashkilotlar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

qonunchilikda belgilangan tartibda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, chet davlatlarning tegishli vakolatli organlari bilan kelishuvlar tuzadi;

*(9-moddaning o'n beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki chet davlatlarning vakolatli organlari, xalqaro tashkilotlar bilan o'zarolik prinsipi asosida hamkorlik qiladi va axborot almashishni amalga oshiradi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

*(9-moddaning o'n yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



*LexUZ sharhi*

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi PF-5446-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti to'g'risida nizom"ning 12-bandi.*

## **10-modda. Maxsus vakolatli davlat organi qarorlarining majburiyligi**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maxsus vakolatli davlat organining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalariga doir qarorlari vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

*(10-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

### **III. PUL MABLAG'LARI YOKI BOSHQA MOL-MULK BILAN BOG'LIQ OPERATSIYALAR VA ULARNI AMALGA OSHIRUVCHI TASHKILOTLAR**

#### **11-modda. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar**

Yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkka nisbatan o'z mulkiy huquqlari va majburiyatlarini belgilashga, o'zgartirish yoxud tugatishga qaratilgan harakatlari pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalardir.

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **12-modda. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar**

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar quyidagilardir:

*Oldingi tahrirga qarang.*

banklar va boshqa kredit tashkilotlari;

*(12-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 29-dekabrda O'RQ-345-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2013-y., 1-son, 1-modda)*

qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari;

birja a'zolari;

sug'urtalovchilar va sug'urta vositachilari;

lizing xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlar;

pul o'tkazmalari, to'lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi tashkilotlar;

lombardlar;

lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'tkazuvchi tashkilotlar;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar;

ko'chmas mol-mulkning oldi-sotdisi bilan bog'liq operatsiyalarda xizmatlar ko'rsatuvchi va ishtirok etuvchi shaxslar;

mijozlar nomidan bitimlar tayyorlash va ularni amalga oshirishda notarial idoralar (notariuslar), advokatlik tuzilmalari (advokatlar) hamda auditorlik tashkilotlari;

*Oldingi tahrirga qarang.*

kripto-aktivlar muomalasi sohasidagi faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar.

*(12-modda O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi O'RQ-640-sonli Qonuniga asosan o'n uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son)*

#### **13-modda. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq, maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalar**

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan ichki nazoratni o'tkazish davomida shubhali deb topilgan sodir etilayotgan va tayyorlanayotgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi kerak.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq, tayyorlash, sodir etish jarayonida bo'lgan yoki sodir etib bo'lingan, ichki nazorat qoidalarida belgilangan mezonlar va belgilarga

muvofig jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish yoki terrorizmni moliyalashtirish yoxud ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilganligi to'g'risida shubha paydo bo'lgan operatsiya shubhali operatsiya, deb topiladi.

*(13-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar taraflaridan biri jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatda doimiy yashayotgan, turgan yoki ro'yxatga olingan shaxs bo'lsa, bunday operatsiyalar ham maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi kerak.

*(13-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

#### **14-modda. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq, alohida hollarda maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalar**

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar, shu operatsiyalarning taraflaridan biri:

*Oldingi tahrirga qarang.*

terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoxud ishtirok etishda gumon qilinayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

terrorchilik faoliyatini yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni amalga oshirayotgan yoxud amalga oshirishda gumon qilinayotgan tashkilotning bevosita yoki bilvosita mulkdori bo'lgan yoxud uni nazorat qilayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

terrorchilik faoliyatini yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni amalga oshirayotgan yoki amalga oshirishda gumon qilinayotgan jismoniy shaxsning yoxud tashkilotning mulkidagi yoki nazorati ostidagi yuridik shaxs ekanligi haqida belgilangan tartibda olingan axborot mavjud bo'lsa, ushbu Qonunga muvofiq maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi va to'xtatib turilishi kerak.

*(14-moddaning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

#### **15-modda. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning majburiyatlari**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar:

ichki nazorat tizimlarini tashkil qilishi va joriy etishi;

identifikatsiyalash tartib-taomillarini amalga oshirishi va mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishi, shu jumladan mijoz va uning mulkdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni verifikatsiyalashi hamda muntazam yangilab borishi;

mulkdorlar va mijozlarni nazorat qiluvchi shaxslarni identifikatsiyalashi hamda ularning shaxsini tekshirish bo'yicha imkon qadar choralar ko'rishi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bo'yicha o'z tavakkalchiliklarini aniqlash hamda baholash choralari ko'rishi, ushbu tavakkalchiliklarni hujjatlar bilan qayd etishi va ularni kamaytirish yuzasidan choralar ko'rishi;

*(15-modda birinchi qismining beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

mijozni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, hisobvaraqlar ochishni, operatsiyani amalga oshirishni, amaliy munosabatlarga kirishishni rad

etishi va mavjud amaliy munosabatlarni tugatishi, shuningdek shubhali operatsiya to'g'risidagi xabarni maxsus vakolatli davlat organiga yuborishi;

shubhali operatsiyalar to'g'risidagi xabarlarni, shu jumladan ularni amalga oshirishga bo'lgan urinishlar to'g'risidagi xabarlarni ular aniqlangan kundan keyingi bir ish kunidan kechiktirmay maxsus vakolatli davlat organiga belgilangan tartibda yuborishi;

operatsiya ishtirokchilarini terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxati bilan solishtirishi;

terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyasini kechiktirmasdan va oldindan xabar qilmasdan to'xtatib turishi, bundan yuridik yoki jismoniy shaxsning hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish bo'yicha operatsiyalar mustasno, va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yishi, shuningdek shubhali operatsiya to'g'risida maxsus vakolatli davlat organiga xabar yuborishi shart.

Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to'xtatib turish, pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yish, ishga solmay to'xtatib qo'yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

*(15-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)*

#### **16-modda. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni bajarishni rad etish**

Identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etmagan yuridik yoki jismoniy shaxslarga pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar mazkur operatsiyalarni bajarishni rad etadi, yuridik yoxud jismoniy shaxs hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish operatsiyalari bundan mustasno.

#### **17-modda. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq chet el valyutasidagi operatsiya**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Agar pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiya chet el valyutasida amalga oshirilayotgan bo'lsa, uning milliy valyutadagi miqdori qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlanadi.

*(17-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

### **IV. JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA, TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISHGA VA OMMAVIY QIRG'IN QUROLINI TARQATISHNI MOLIYALASHTIRISHGA QARSHI KURASHISH BILAN BOG'LIQ AXBOROT**

*(IV bobning nomi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

#### **18-modda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni taqdim etish**

*(18-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish, shuningdek pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarni terrorchilik faoliyatida yoxud boshqa jinoiy faoliyatda ishtirok etayotgan yoki ushbu faoliyatda ishtirok etishda gumon qilinayotgan yuridik yoxud jismoniy shaxslar haqida xabardor qilish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

*(18-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalari to'g'risidagi axborotni yoxud boshqa ma'lumotlarni maxsus vakolatli davlat organiga belgilangan tartibda taqdim etish tijorat, bank siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni buzish hisoblanmaydi.

*(18-modda O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-apreldagi O'RQ-212-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2009-y., 17-son, 210-modda)*

### **19-modda. Ma'lumotlarning maxfiyligini va saqlanishini ta'minlash**

Maxsus vakolatli davlat organi va uning xodimlari o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan tijorat, bank siri yoki boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiyligini va saqlanishini ta'minlashlari shart.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning, maxsus vakolatli davlat organining hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi boshqa organlarning xodimlari yuridik va jismoniy shaxslarni ularga nisbatan o'tkazilayotgan nazoratdan xabardor qilishga haqli emas.

*(19-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**20-modda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotdan erkin foydalanishni cheklash hamda bunday axborotni tarqatmaslik**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar, maxsus vakolatli davlat organi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi boshqa organlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotdan erkin foydalanishni qonunchilikda belgilangan tartibda cheklaydilar hamda bunday axborotning tarqatilmasligini ta'minlaydilar.

*(20-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

**21-modda. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi axborotni, shuningdek identifikatsiyalash ma'lumotlarini va mijozlarni lozim darajada tekshirishga doir materiallarni saqlash**

*Oldingi tahrirga qarang.*

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi axborotni,

shuningdek identifikatsiyalash ma'lumotlarini va mijozlarni lozim darajada tekshirishga doir materiallarni qonunchilikda belgilangan muddatlar mobaynida, lekin bunday operatsiyalar amalga oshirilganidan yoki mijozlar bilan amaliy ish munosabatlari to'xtatilganidan keyin kamida besh yil mobaynida saqlashlari shart.

(21-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 15-iyundagi O'RQ-252-son "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonunining 23, 24-moddalari.

## V. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Oldingi tahrirga qarang.

**22-modda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlik**

(22-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 15-yanvardagi O'RQ-516-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

(22-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi va Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi Xalqaro konvensiyasiga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

Maxsus vakolatli davlat organi zarur axborot taqdim etish to'g'risida chet davlatlarning vakolatli organlariga so'rovlar yuborish va chet davlatlar vakolatli organlarining so'rovlariga javob qaytarish huquqiga ega.

(22-modda O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-apreldagi O'RQ-212-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2009-y., 17-son, 210-modda)

**23-modda. Nizolarni hal qilish**

Oldingi tahrirga qarang.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

(23-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

**24-modda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik**

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

(24-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli **Qonuni** tahririda  
— Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

*Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 179<sup>3</sup>-moddasi.*

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
2004-yil 26-avgust,  
660-II-son

*(O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 43-son, 451-modda; 2007-y., 17-18-son, 172-modda; 2009-y., 17-son, 210-modda; 2013-y., 1-son, 1-modda; 2016-y., 17-son, 173-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 05.10.2020-y., 03/20/640/1348-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*